

"Taxtaqoracha" (Kitob) dovoni ochilishi to'g'risida

M-39 "Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil' yo'lining Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi "Taxtaqoracha" (Kitob) dovonidan o'tgan qismlarida 2020 yilning 4 yanvar' kuni kuchli qor yog'ishi va ko'rish imkoniyatlarining keskin pasayganligi sababli avtotransport vositalarining harakati vaqtincha to'xtatilgan edi.

Bugun 2020 yil 5 yanvar' kuni soat 8:30 da M-39 "Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil' yo'lining Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi "Taxtaqoracha" (Kitob) dovonidan o'tgan qismlarida avtotransport harakati yo'lga quyildi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

matbuot xizmati